

“O‘zsanoatqurilishbank” ATB  
Boshqaruvining  
2023-yil “2” avgust dagi  
146 - sonli qarori  
5- ilovasiga muvofiq  
“MA’QULLANGAN”



Yuridik departament  
Metodologiya boshqarmasida  
2023-yil “11” oktabr da  
570 - son bilan  
“RO‘YXATGA OLINGAN”

## “O‘zsanoatqurilishbank” ATBda affillangan shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni hisobga olish va oshkor qilish Tartibi”

### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur Tartib O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni, “Bir qarz oluvchi, o‘zaro bog‘liq qarz oluvchilar guruhi uchun tavakkalchilikning maksimal miqdori to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 3283, 29.10.2020 y.), “Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni taqdim etish va e‘lon qilish Qoidalari” (ro‘yxat raqami: 2383, 37.07.2012 y.), “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi Nizom (ro‘yxat raqami: 3254, 30.06.2020 y.) hamda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB (keyingi o‘rinlarda – Bank)ning ichki me‘yoriy hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Ushbu Tartib Bankning affillangan shaxslarining xususiyatlarini ochib beradi va quyidagilarni:

Bankning affillangan shaxslari to‘g‘risidagi markazlashtirilgan ma‘lumotlar bazasi tizimi (keyingi o‘rinlarda - affillangan shaxslar reyestri)ni yuritishning maqsad va vazifalari;

Bankning affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, reyestrغا kiritish, saqlash va taqdim etish tartibi;

affillangan shaxslar reyestriga kiritiladigan ma‘lumotlarni shakllantirish maqsadida Bankning affillangan shaxslari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni to‘plash va saqlash bilan bog‘liq chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish bo‘yicha Bank tarmoqlarini o‘zaro hamkorligini belgilaydi.

2. Mazkur Tartib “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunida belgilangan normalarga muvofiq Bankning affillangan shaxslari bilan operatsiyalarni amalga oshirishga yordam beradi.

## II. ASOSIY TUSHUNCHALAR

**MSFO** - Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari;

**Qonun** – O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonuni;

**Qoidalar** - Qimmatli qog‘ozlar bozori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etish va e’lon qilish Qoidalari (ro‘yxat raqami: 2383, 37.07.2012 y.);

**Bankning mas’ul bo‘linmalari** - Moliya institutlari va investorlar bilan ishlash departamenti, G‘aznachilik departamenti, Korporativ boshqaruv xizmati, Resurslarni boshqarish bo‘yicha Bosh direktor, Xodimlarni boshqarish departamenti, Komplayens nazorat departamenti, Ichki audit xizmati, Axborot texnologiyalari departamenti, Marketing departamenti va Bankning affillangan shaxsi bilan bitim tuzishi rejaga kiritgan boshqa bo'linmalari.

## III. BANKKA ALOQADOR SHAXSLAR

### **3. Bank bilan bog‘liq (aloqador) shaxslarga quyidagi shaxslar kiradi:**

Bankning Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining a‘zolari;

Bosh bankda tashkil etilgan qo‘mitalarning Boshqaruv organlari a‘zolari bo‘lmagan a‘zolari, shuningdek Bankning muhim ahamiyatga ega xodimlari;

bevosita yoki bilvosita, yakka tartibda yoki shaxslar guruhi tarkibida birgalikda faoliyat ko‘rsatuvchi, Bankda hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar, shu jumladan oxirgi benefitsiar mulkdorlar. Agar mazkur jismoniy shaxslarning yaqin qarindoshlari Bankning ustav kapitalidagi ulushlarga egalik qilsa yoki egalikni nazorat qilsa, uning miqdoridan qat’i nazar, ushbu ulush mazkur shaxsning egaligida va nazorati ostida turgan deb hisoblanadi;

Bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan yuridik shaxsga nisbatan rahbarlik yoki nazorat qilish vakolatiga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar;

Bank guruhiga kiruvchi moliyaviy institutlar;

Bank guruhiga kiruvchi moliya institutining kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo‘lgan jismoniy va yuridik shaxslar;

Banklar guruhiga kiruvchi moliya institutining Kuzatuv Kengashi, Boshqaruvi a‘zolari va muhim ahamiyatga ega xodimlari;

ustav fondida (ustav kapitalida) Banklar guruhining asosiy Banki kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs, shuningdek ushbu yuridik shaxsning mansabdor shaxslari;

yuridik shaxs va uning mansabdor shaxslari, basharti ushbu yuridik shaxsning ustav kapitalida (ustav fondida) Bank kamida 20 foizga bevosita yoki bilvosita egalik qilsa;

Bank ustidan nazoratni amalga oshirayotgan yuridik shaxslar ustav kapitalida (ustav fondida) kamida 20 foiziga bevosita yoki bilvosita egalik qiluvchi yuridik shaxs;

Bank ustav kapitalida hal qiluvchi egalikka ega bo'lgan yuridik shaxs ustidan nazoratni amalga oshirayotgan shaxslar;

ushbu bandning ikkinchi - o'n birinchi xatboshilarida ko'rsatilgan shaxslarga aloqador shaxslar, shu jumladan jismoniy shaxsning yaqin qarindoshlari, shuningdek jismoniy shaxslar va (yoki) ularning yaqin qarindoshlari o'zida nazoratni amalga oshirayotgan yoki ustav fondlariga (ustav kapitallariga) egalik qilayotgan yoki boshqaruv organining a'zolari bo'lgan yuridik shaxslar;

Yuqorida ko'rsatilgan shaxslarning manfaatlarini ko'zlab Bank bilan qaysi shaxslar orqali bitim amalga oshiriladigan bo'lsa, o'sha shaxslar va mazkur shaxslar o'rtasida qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga oid, fuqarolik yoki boshqa munosabatlar mavjudligi tufayli mazkur bitimda ushbu ko'rsatilgan shaxslarning ta'siri ostida deb hisoblanadigan shaxslar.

#### **4. Bankka aloqador shaxslar nomidan harakat qiladigan shaxslarga quyidagilar kiradi:**

Bankka aloqador shaxslarning huquqiy vakillari;

Bankka aloqador shaxslar bilan o'zaro tuzilgan bitimga asosan Bankka aloqador shaxsning nomidan harakat qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxslar;

tuziladigan bitimdan olinadigan foydani bevosita yoki bilvosita Bankka aloqador shaxslarga beradigan shaxslar

qonunchilik hujjatlarida belgilangan mehnatga oid, fuqarolik yoki boshqa munosabatlar mavjudligi nuqtai nazaridan, ushbu Tartibning 3-bandida ko'rsatilgan shaxslar ta'siri ostida Bank bilan bitim tuzgan shaxslar.

### **IV. BANKNING AFFILANGAN SHAXSLARI**

#### **5. Quyidagilar Bankning affilangan shaxslari deb e'tirof etiladi:**

1) Bankning 20 foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga egalik qiluvchi yuridik shaxs;

2) Bankning 20 foiz va undan ortiq foiz aksiyalariga yaqin qarindoshlari bilan birgalikda egalik qiluvchi jismoniy shaxs;

3) Bank Kuzatuv kengashining a'zosi, Boshqaruv Raisining yoxud Boshqaruvi a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs;

4) Bank qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 20 foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

5) Bankning shu'ba korxonalarini bo'lgan yoki ushbu jamiyat qaysi jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyati bo'lsa, o'sha jamiyatning shu'ba xo'jalik jamiyati bo'lgan yuridik shaxs;

6) Bank ustav fondining (ustav kapitalining) 20 foizi va undan ortiq foiziga egalik qiluvchi ayni bir shaxs qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 20 foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

7) Bank Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi ayni bir shaxslar va ularning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

8) Bank Boshqaruvi Raisi yoxud Boshqaruv a'zosi bo'lgan ayni bir shaxs yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ijroiya organining rahbari vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

9) yaqin qarindoshlari bilan birgalikda Bank Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etuvchi shaxs qaysi yuridik shaxs rahbarining yoki ijroiya organi a'zosining vazifasini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

10) Bank Boshqaruvi Raisining yoki Boshqaruv a'zosining vakolatlarini amalga oshirayotgan shaxs yaqin qarindoshlari bilan birgalikda qaysi yuridik shaxs Bank Kuzatuv kengashining kamida uchdan bir qismini tashkil etsa, o'sha yuridik shaxs;

11) Bank bilan bitta xo'jalik birlashmasiga kiruvchi yuridik shaxs.

**6. Quyidagilar jamiyatning affillangan shaxsi bo'lgan aksiyador - jismoniy shaxsning affillangan shaxslari deb e'tirof etiladi:**

ushbu jismoniy shaxs va (yoki) uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs ustav fondining (ustav kapitalining) 20 foizi va undan ortiq foiziga egalik qilsa, o'sha yuridik shaxs;

ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxs Kuzatuv Kengashining a'zosi bo'lsa, o'sha yuridik shaxs;

ushbu aksiyador yoki uning yaqin qarindoshlari qaysi yuridik shaxsda ijroiya organining a'zosi vakolatlarini amalga oshirayotgan bo'lsa, o'sha yuridik shaxs.

## **V. MAQSAD VA VAZIFALAR**

7. Affillangan shaxslar reyestrini yuritishdan asosiy maqsad bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va bankning ichki hujjatlari talablarining lozim darajada bajarilishini ta'minlashdan iborat.

8. Affillangan shaxslar reyestrini yuritishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni markazlashtirilgan hisobga olish va saqlash;

affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni to'g'ri taqdim etish.

## **VI. AFFILLANGAN SHAXSLAR BILAN ISHLARNI TASHKIL ETISH**

9. Ma'lumotlarni kiritish (ma'lumotlarni o'zgartirish), shuningdek, Bankning affillangan shaxslari reyestrini yuritish Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan bankning mas'ul bo'linmalari tomonidan tegishincha taqdim etilgan ma'lumotlar asosida shakllantiriladi va hisobi yuritiladi.

Shuningdek, affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlardan boshqa aniqlangan va tasdiqlangan ma'lumot manbalaridan (OAV va turli tashkilotlarning rasmiy veb-saytlari) foydalanish mumkin.

Affillangan shaxslar reyestri elektron shaklda Axborot texnologiyalari departamenti tomonidan ishlab chiqilgan alohida dasturda yoki "Excel" formatida Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan yuritiladi va kelib tushgan faktlarga muvofiq davriy ravishda yangilanib turishi shart. Bankning affillangan shaxslari reyestriga Bank bilan bog'langan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi (alohida ustunda).

Affilangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar reyestri Axborot texnologiyalari departamenti tomonidan ishlab chiqilgan alohida dasturda yoki "Excel" formatida Komplayens-nazorat departamenti tomonidan yuritiladi.

**10.** Korporativ boshqaruv xizmati mas'ul xodimi davriy ravishda (qoida tariqasida yilda bir marotaba) Bankning affillangan shaxslar reyestridagi ma'lumotlarning zaxira nusxasini oladi va ularni saqlaydi.

**11.** Shaxsning affilligi (Bank bilan aloqasi) yuzaga kelganligi to'g'risida Korporativ boshqaruv xizmatini xabardor qilish majburiyati mazkur Tartibning 13-16-bandlarida ko'rsatilgan Bankning mas'ul bo'linmalariga yuklanadi.

Mazkur mas'ul bo'linmalar tomonidan xizmat yozishmasi orqali Komplayens nazorat departamenti bilan kelishilgan holda elektron pochta (elektron dastur) orqali tasdiqlovchi hujjatlar (agar mavjud bo'lsa) ilova qilgan holda taqdim etiladi.

**12.** Bankning mas'ul bo'linmasi bitim tuzish chog'ida, shuningdek, boshqa hollarda, shaxs Bankning affillangan shaxsi hisoblanishi/bo'lishi mumkinligi deb hisoblash uchun asosga ega bo'lsa, ushbu shaxs mazkur Tartibning 5-bandida ko'rsatilgan to'g'ridan-to'g'ri mezonlarga to'g'ri kelishidan qat'i nazar, bunday bo'linma shaxsning Bank bilan munosabatlari aniqlangan kundan 1 ish kuni ichida Korporativ boshqaruv xizmatiga xizmat yozishma orqali tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilgan holda (agar mavjud bo'lsa) tegishli xabarni yuborishi shart.

**13. G'aznachilik departamenti** Bank bilan bog'liq shaxslar tarkibiga o'zgartirishlar kiritilgan taqdirda 1 ish kuni ichida ushbu haqda ma'lumotlarni reyestrga kiritish orqali yangilab boradi (agar mavjud bo'lsa).

**14. Korporativ boshqaruv xizmati** Bank Kuzatuv kengashi, taftish komissiyasi, Bank Boshqaruvi tarkibi, Kuzatuv kengashi a'zolari va Boshqaruvning Bank aksiyalariga egalik huquqi o'zgargan kundan keyingi 1 ish kuni ichida bunday o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni affillangan shaxslar reyestriga kiritadi (mavjud bo'lsa).

**15. Resurslarni boshqarish bo'yicha Bosh direktor, Moliyaviy institutlar bilan ishlash departamenti, G'aznachilik departamenti** affillangan shaxslar va Bank bilan bog'liq shaxslarga nisbatan qimmatli qog'ozlarga bo'lgan huquqlarga o'zgartirishlar kiritilgan kundan keyingi 1 ish kuni ichida tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda (agar mavjud bo'lsa) xizmat yozishma orqali Korporativ boshqaruv xizmatiga yuboradi.

## **16. Resurslarni boshqarish bo'yicha Bosh direktor, G'aznachilik departamenti**

Bankning sho'ba korxonalari va uning nazoratidagi tashkilotlari ro'yxatiga o'zgartirishlar kiritilgan kundan keyingi bir ish kuni ichida Korporativ boshqaruv xizmatiga tasdiqlovchi hujjatlar (agar mavjud bo'lsa) bilan xizmat yozishma yuboradi.

**17.** Bankning affillangan shaxslari reyestriga ma'lumotlar kiritish, ularni yangilash uchun asosiy ma'lumot manbasi eslatma, anketalar, hujjatlar nusxalari (yuridik shaxsni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, yuridik shaxsni davlat qayta ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnoma, vakolatli organning birinchi rahbarini saylash (tayinlash) to'g'risidagi qarori, STIR (mavjud bo'lsa) va boshqa hujjatlar) ushbu Tartibning 13-16-bandlarida ko'rsatilgan mas'ul bo'linmalar tomonidan Korporativ boshqaruv xizmatiga taqdim etilgan hujjatlar hisoblanadi.

**18.** Korporativ boshqaruv xizmati funksiyalarni lozim darajada bajarishi uchun Bankning boshqa mas'ul tarkibiy bo'linmalarida yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan mavjud bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga haqli.

Ma'lumotlar asosida Korporativ boshqaruv xizmati Bank affillangan shaxslarining reyestri (keyingi o'rinlarda - Reyestr)ni shakllantiradi.

**19.** Tegishli shaxsni reyestriga kiritish yoki uni reyestrda chiqarish, shuningdek bunday shaxsga oid reyestrda ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritish Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan tegishli ma'lumotlar olingan kundan boshlab 1 ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

**20.** Reyestr qonunchilik talablariga muvofiq elektron shaklda (qog'oz ko'rinishida ham bo'lishi mumkin) tuziladi, qoida bo'yicha yiliga bir marta, kalendar yilining 31 dekabr holatiga Korporativ boshqaruv xizmati tomonidan:

Komplayens nazorat departamentiga affilangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar reyestriga o'zgartirishlar kiritish uchun (mavjud bo'lsa);

Marketing departamentiga Bankning rasmiy veb-saytiga joylashtirish uchun yuboriladi.

Zarur hollarda, reyestr Bank Aksiyadorlari umumiy yig'ilishining yoki Kuzatuv kengashining qarori asosida boshqa istalgan sanaga ham tuzilishi mumkin.

**21.** Reyestr elektron shaklda yuritiladi, unda Bankning affillangan shaxslari to'g'risidagi quyidagi ma'lumotlar bo'lishi kerak:

to'liq ismi (famiyasi, ismi, otasining ismi);

tashkiliy-huquqiy shakl;

yashash joyi (yashash joyi) va pochta manzili, shuningdek, agar mavjud bo'lsa, elektron pochta manzili va veb-sayt;

soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR);

Bankning affillangan shaxslari tan olinishi uchun asoslar;

Bankning affillangan shaxslari deb tan olingan sana;

Bankning affillangan shaxsi maqomini yo'qotgan sana;

Bankning affillangan shaxsi maqomini yo'qotish uchun asoslar;

Bankning affillangan shaxsi maqomi berilganligi bilan bog'liq asoslardagi o'zgarishlar;

Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining soni, turi va narxi.

## **VII. BANK AFFILLANGAN SHAXSLARI HAQIDAGI MA'LUMOTLARNI OSHKOR QILISH**

### **22. Bankning affillangan shaxslari tomonidan ma'lumotlarning oshkor etilishi.**

Bankning affillangan shaxsi o'zining affillanganligi to'g'risida ma'lumotlarni batafsil ko'rsatgan holda asoslar vujudga kelgan paytdan e'tiboran 3 ish kunidan kechiktirmagan holda yozma ravishda Korporativ boshqaruv xizmatini xabardor qilishi shart.

Bankning affillangan bo'lgan yuridik shaxsi ushbu Tartibning 1-ilovasiga muvofiq shaklda to'ldirilgan so'rovnomani taqdim etish orqali xabardorlikni amalga oshiriladi.

**23. Jismoniy shaxs Bankning affillangan shaxsi bo'lganda** – bu haqida xabar berish ushbu Tartibning 2-ilovasiga muvofiq shaklda Bankka to'ldirilgan so'rovnomani taqdim etish orqali amalga oshiriladi.

Anketa shakli Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Affillangan shaxs tomonidan Bank o'z vaqtida xabardor qilinmagan taqdirda, Korporativ boshqaruv xizmati ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida Bankning affillangan shaxsiga so'rov yuboradi.

So'rov affillangan shaxsga xabarnoma olinganligi to'g'risida tilxat bilan buyurtma pochta yoki kurer orqali yuboriladi. Agar affillangan shaxs – jismoniy shaxsning yashash joyi to'g'risida Bank ma'lumotga ega bo'lmasa, bunday shaxs Bankning rasmiy veb-saytida xabar joylashtirilgan paytdan boshlab Bank tomonidan yozma ravishda xabardor qilingan hisoblanadi.

Aksiyalarning egasi mustaqil ravishda yoki affillangan shaxslar bilan birgalikda Bank ustav kapitalining jami 20 foizdan ortiq bo'lgan Bank aksiyalari paketini bir yoki bir nechta bitimlar natijasida sotib olinganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni Qoidalarning 20 va 23-bandlari talablariga muvofiq oshkor qilishga majburdir.

Agar affillangan shaxsning aybi bilan ushbu Tartib talablariga muvofiq ma'lumotlar taqdim etilmaganligi yoki ma'lumotlarning Bankka o'z vaqtida taqdim etilmaganligi natijasida mulkiy zarar yetkazilgan bo'lsa, affillangan shaxs Bankka etkazilgan zarar miqdorida javobgarlikka tortiladi.

**24. Bank quyidagi hollarda o'z affillangan shaxslari to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qiladi:**

qimmatli qog'ozlarni chiqarish risolasida (Bankning affillangan shaxslari ro'yxati, ular egalik qiladigan aksiyalar soni va turi ko'rsatilgan holda);

Bankning yillik hisobotida (affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan ularning yozma xabarlari va bitimlar bo'yicha qabul qilingan

qarorlarning to'liq tahriri hamda qaror qabul qilgan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar, affillangan shaxslar ro'yxati);

muhim fakt to'g'risidagi ma'lumotda (bankning affillangan shaxslari ro'yxatiga ular egalik qiladigan qimmatli qog'ozlarning soni, turi va ko'rsatilgan o'zgartirishlar).

affillangan shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilish bankning rasmiy veb-saytida ma'lumotlarni joylashtirish orqali amalga oshiriladi.

Bankning affillangan shaxslari to'g'risidagi ushbu Tartibda ko'rsatilmagan ma'lumotlarni oshkor qilish shartlari va tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

## **VIII. BANKNING AFFILLANGAN SHAXSLARI BILAN TAKLIF ETILGAN BITIMNI O'RGANISH VA AMALGA OSHIRISH**

**25.** Bankning affillangan shaxsi bilan tuzilishi rejalashtirilgan bitim to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning ichki audit xizmati va Bankning ushbu bitimni tuzishni rejalashtirgan tegishli tarkibiy bo'linmasi tomonidan o'rganiladi.

Bunda xabar dastlab ushbu bitimni tuzishni rejalashtirgan tegishli mas'ul bo'linma tomonidan o'rganilib chiqiladi va o'rganish bo'yicha to'plangan hujjatlarni ilova qilgan holda bankning ichki audit xizmatiga taqdim etiladi.

Bankning ichki audit xizmati tomonidan affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni o'rganish natijalari bayonnoma (Qonun, 87-modda) bilan rasmiylashtirilib, taqdim qilgan mas'ul bo'linmaga qaytariladi.

Tegishli mas'ul bo'linma ichki audit xizmatining o'rganish natijalari bo'yicha bayonnomanani olgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida Boshqaruv muhokamasiga kiritadi.

**26.** Affillangan shaxs bilan bitim tuzishni rejalashtirgan Bankning tegishli mas'ul bo'linmasi bitimga doir barcha hujjatlar to'plamini dastlab Boshqaruv, keyinchalik Bank Kuzatuv kengashi muhokamasiga kiritish bo'yicha mas'ul hisoblanadi.

Bank Kuzatuv kengashi affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi ma'lumotlarni o'rganib chiqadi va 15 kun ichida bitim yuzasidan qaror qabul qiladi.

Agar Bank Kuzatuv kengashining 2 yoki undan ortiq a'zolari affillangan shaxslar bo'lsa, bitim tuzish to'g'risidagi qaror qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

Bankning affillangan shaxsi mazkur bitim bo'yicha Bank Kuzatuv kengashi yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan qaror qabul qilinganda muhokamada qatnashish va ovoz berish huquqiga ega emas.

Affillangan shaxs bilan tuziladigan bitimni ma'qullash to'g'risidagi qaror yig'ilishda ishtirok etayotgan Kuzatuv Kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan yoki Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida ishtirok etuvchi aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Shu bilan birga, Bankning affillangan shaxsi bilan summasi Bank sof aktivlari qiymatining 10 va undan ortiq foizini tashkil etuvchi bitim tuzish to'g'risidagi qaror mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan ularning shartlarini o'rgangan holda majburiy ravishda,



O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilanadigan mol-mulkning bozor qiymati hisobga olingan holda qabul qilinadi

Bankning tegishli mas’ul bo‘linmasi taklif etilayotgan bitim tarafini affillangan shaxs bilan tuzilgan bitim bo‘yicha qabul qilingan qaror haqida yozma ravishda xabardor qiladi.

Affillangan shaxs bilan bitim tuzilgan kundan e’tiboran 3 ish kuni ichida tegishli mas’ul bo‘linma tuzilgan bitim (shartnoma)ning “PDF” shaklini Komplayens-nazorat departamentiga “Affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar reyestri”ga ma’lumotlarni kiritish uchun taqdim qiladi.

Agar affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim bir vaqtning o‘zida yirik bitim hisoblansa, uni tuzish tartibiga Qonunning 8-bobida belgilangan yirik bitimni tuzish qoidalari qo‘llaniladi.

## **IX. REYESTRDAN FOYDALANISH**

**27.** To‘liq (tahrirlash rejimida) foydalanish huquqi faqat Korporativ boshqaruv xizmatining vakolatli xodimlariga tegishli.

Ko‘rish (o‘qish) rejimida reyestrda foydalanish va konfidensiallik rejimiga rioya qilish sharti bilan tegishli ma'lumotlarni chop etish huquqi quyidagilarga beriladi:

Bank bilan bog‘liq shaxslar bo‘yicha - Bank bilan bog‘liq shaxslar bilan bitimlar tuzadigan Bank tarkibiy bo‘linmalari, Risk menejment, Yuridik va Komplayens-nazorat departamentlariga;

MSFOga asosan bank bilan bog‘liq bo‘lgan tomonlar bo‘yicha - Buxgalteriya hisobi va moliyaviy menejment departamenti xodimlari (agar zarur bo‘lsa);

boshqa hollarda kirish Korporativ boshqaruv xizmati rahbarining ruxsati asosida Bankning boshqa bo‘linmalariga va faqat ko‘rish (o‘qish) rejimida berilishi mumkin.

## **X. JAVOBGARLIK**

**28.** Foydalanuvchilar va Reyestrni yuritish uchun mas’ul shaxslar Bankning ichki hujjatlari talablariga muvofiq Reyestrda ma’lumotlarning konfidensialligini ta’minlashlari shart.

**29.** Bank bilan bog‘liq bo‘lgan (affillangan shaxslar), Bankning kontragentlari va mijozlari Anketada ko‘rsatilgan ma’lumotlarning noto‘g‘riligi, taqdim etilmaganligi yoki to‘liq ko‘rsatilmaganligi, shuningdek, ularning holati bilan bog‘liq ma'lumotlarni noto‘g‘ri ko‘rsatganligi uchun O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

**30.** Korporativ boshqaruv xizmatining mas’ul xodimlari quyidagi hollarda javobgar bo‘lmaydilar:

Bank bilan bog‘liq bo‘lgan shaxslar tomonidan ma'lumotlarni noto‘g‘ri taqdim etish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, bunday shaxslar tomonidan

ma'lumotlarni taqdim etmaslik, to'liq taqdim etmaslik, o'z vaqtida taqdim etmaslik va/yoki noto'g'ri taqdim etish;

Bankning ichki hujjatlariga muvofiq affillangan shaxslar reyestriga kiritish uchun ma'lumotlarni taqdim etishga mas'ul bo'lgan bank tarkibiy bo'linmalari xodimlarining aybi bilan ma'lumotlarni noto'g'ri taqdim etish, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, taqdim etmaslik, to'liq taqdim etmaslik; ma'lumotlarni o'z vaqtida taqdim etmaslik va/yoki noto'g'ri taqdim etish;

dasturiy ta'minotning ishlashidagi texnik nosozliklar.

**31.** Axborot texnologiyalari departamenti affillangan shaxslar reyestrini yuritishda foydalaniladigan dasturiy ta'minotning ishlashidagi texnik nosozliklar (mavjud bo'lsa) uchun javobgardir.

## **XI. YAKUNIY QOIDALAR**

**32.** Affillangan shaxslar reyestrini yuritishda foydalaniladigan dasturiy ta'minotni yuritish, undagi ma'lumotlarning saqlanishi axborot texnologiyalari departamenti tomonidan ta'minlanadi.

**33.** Mazkur Tartibning ilovalari uning ajralmas qismi hisoblanadi.

**34.** Mazkur Tartib talablari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid kelsa yoki agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga kiritilgan o'zgartirishlar natijasida ushbu Tartibning ayrim normalari O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga zid bo'lsa, ushbu Tartibga o'zgartirishlar kiritilgunga qadar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Tartibning qonun hujjatlariga zid bo'lmagan qismlaridan foydalanish zarur.

**35.** Mazkur Tartib Bank Kuzatuv kengashining qarori bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

*“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda affillangan  
shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni hisobga olish  
va oshkor qilish Tartibi”ga 1-Ilova*

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning affillangan shaxs Anketasi**  
(yuridik shaxs)

Yuridik shaxsning to‘liq nomi	
Yuridik shaxsning tashkiliy-huquqiy shakli	
Joylashuvi va pochta manzili	
Elektron pochta manzili va veb-sayt (mavjud bol’sa)	
Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
Yuridik shaxsning bankning affillangan shaxsi bo‘lishi uchun asoslari	
Yuridik shaxs bankning affillangan shaxsi hisoblanadigan sana	
Bankning yuridik shaxsga tegishli ovoz beruvchi aksiyalarining miqdori, turi va foizi	

Ushbu anketaga yuridik shaxsning ta'sis hujjatining nusxasi ilova qilinadi

\_\_\_\_\_  
F.I.Sh

\_\_\_\_\_  
imzo

“ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 202\_\_ y.

*“O‘zsanoatqurilishbank” ATBda affillangan  
shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni hisobga olish  
va oshkor qilish Tartibi”ga 2-Ilova*

**“O‘zsanoatqurilishbank” ATBning affillangan shaxs Anketasi**  
(jismoniy shaxs)

Shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi	
Yashash manzili	
Elektron pochta manzili (mavjud bo‘lsa)	
Soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami (STIR)	
Shaxsning bankning affillangan shaxsi bo‘lishi uchun asoslari	
shaxs bankning affillangan shaxsi hisoblanadigan sana	
shaxsga tegishli ovoz beruvchi aksiyalarining miqdori, turi va foizi	

Ushbu anketaga shaxsni tasdiqlovchi hujjatining nusxasi ilova qilinadi

\_\_\_\_\_

F.I.Sh.

\_\_\_\_\_

imzo

“ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ 202\_\_ y.